



BO'LAJAK LOGOPEDLARNING NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING OTA-ONALARI BILASH ISHLASHGA O'RGATISH

Shermatova Yo. S.

*Qo'qon davlat pedagogika instituti
Inklyuziv ta'lim kafedراسi katta o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: korreksion, individuallik, logoped, integratsiya, ota-onalar, oila, ijtimoiy muhit, mahorat, shaxs munosabatlari.

Ключевые слова: коррекция, индивидуальность, логопед, интеграция, родители, семья, социальная среда, навыки, личностные отношения.

Key words: correction, individuality, speech therapist, integration, parents, family, social environment, skills, personal relations.

Kirish. Bugungi kunda hamkorlikni tashkil etish rejasini amalga oshirishda eng katta qiyinchilik qiziqishi kam bo'lgan ota-onalarda paydo bo'ladi. Bunday oilalar bilan shug'ullanganda eng samarali ish shakli ta'sir etishning individual ko'rinishi bo'lib hisoblanadi, jumladan individual tarzda maslahat (konsultatsiya) berishdir. Individual maslahat berish bir necha bosqichda olib borildi. Har bir bosqichda o'ziga xos va mos masalalar amalga oshirilib, o'ziga xos usullardan foydalana olish lozim.

Adabiyotlar tahlili. Ma'lumki hamkorlik tushunchasi pedagogning o'quv jarayonida eng yaxshi natijalarga erishishi, yuqori kasbiy salohiyatga ega bo'lishi, shuningdek, kommunikativ va ijobiy fazilatlariga ega ekanligiga asoslanadi. Shuning uchun, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahliliga muroj-at qilaylik "hamkorlik" tushunchasi mazmunining mohiyatini oydinlashtirsak. F.A.Broksauz, M.A.Efronning so'zlariga ko'ra lotincha "hamkorlik" so'zi "birgalikda" so'zining sinonimi bo'lib, "bilmoq", ya'ni bilish, qodir, boshqarish fe'lidan kelib chiqqan[3]. Inglizcha "cooperation" so'zi tom ma'noda "birgalikda" degan ma'noni anglatadi. Tarkib "nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash, yuqori darajadagi kasbiy mahorat, ko'nikma va malakalarni namoyon eta olish"ni ta'kidlash uchun mo'ljallangan. "hamkorlik" atamasi pedagogikada psixologik tadqiqotlar natijasida paydo bo'lgan.



Muallif logopedning kompetentligi tarkibida “nutq kamchiliklariga ega bolalarni o‘qitish va tarbiyalash usuli va metodlarini egallash va bilish” sifatida belgilanadigan metodik kompetentlikni ajratadi[2]. “Hamkorlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan hamkorlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada bo‘lajak logopedlarni hamda ota-onalar bilan hamkorlikni shakllantirish omillari haqida fikr yuritiladi, shuningdek hamkorlik tushunchalari tahlil qilindi, bo‘lajak logopedlarni hamkorlik ishlarini shakllantirishga qaratilgan turli xil bosqichlar yoritilib o‘tiladi.

Tahlillar va natijalar. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy moslashgan jamiyat bilan hamkorlik qiladigan va yolg‘iz ishlashga qodir shaxsni tayyorlashdir. Demak, yetuk shaxsni tarbiyalashda ko‘p millatli o‘qituvchilarning saviyasi muhim.

Nutqida nuqsoni mavjud bolani oilada tarbiyalash va rivojlantirishda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning shakli va mazmuni ularni logoped (defektolog) lar bilan hamkorlik darajasi bilan aniqlandi. Ota-onalar bilan ishlashni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga tayanamiz:

- √ Ota-onalarning defektologik yordam olishga tayyorlik darajasini hisobga oluvchi differensiallashgan yordam;
- √ Ota-onalar tomonidan qayta aloqaning mavjudligi;
- √ Korreksion o‘qishning turli xil davrida olib boriladigan ishning u yoki bu shakli (ko‘rinishi)ning ustuvorligi.

Hamkorlikini tashkil etish rejasini amalga oshirishda eng katta qiyinchilik qiziqishi kam bo‘lgan ota-onalarda paydo bo‘ladi. Bunday oilalar bilan shug‘ullanganda eng samarali ish shakliy ta’sir etishning individual ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi, jumladan individual tarzda maslahat (konsultatsiya) berishdir. Individual maslahat berish bir necha bosqichda olib borildi. Har bir bosqichda o‘ziga xos va mos masalalar amalga oshirilib, o‘ziga xos usullardan foydalanildi.

Birinchi bosqich vazifasi-hamkorlikni rad etgan va unga salbiy qarashda bo‘lgan ota-onalar bilan ochiq va ishonchli munosabat o‘rnatish. Shu maqsadda individual maslahatning maqbul shakllaridan biri bo‘lgan suhbatdan foydalanildi. Suhbat mazmuni shu bosqich vazifasi asosida olib borildi. Boshlang‘ich qisqa suhbatda ota-onalarning pedagogik qobiliyati pastligi va ularni noto‘g‘ri xatta-harakatlarini tanqid qilishdan voz kechiladi. Birinchi uchrashuvda ota-onalar xatoliklarini sezmaganday bo‘lishga va ular ishonchini oqlashga harakat qilinadi.

Agar ota-onalarning o‘zlarini davolanishlari kerak bo‘lsa ular bilan o‘zaro va to‘liq ishonch hosil qilish jarayoni qanchalik uzoq muddatli va qiyin ekanligi nazarda tutiladi va vaziyatga karab yondashiladi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan individual ishning ikkinchi bosqichi maslahat-tavsiyanoma ko‘rinishida olib boriladi nutq nuqsonini og‘irligiga qarab rejalashtiriladi.

Ota-onalarga mavjud qiyinchiliklarni oldini olish va uni yo‘qotish nutq kamchiligini va bolaning psixik xususiyatlarini, ehtiyojiga uning yoshi va maxsus qiziqishlari hisobga olgan xolda o‘z vaqtida yaxshilab tushuntirish juda foydalidir. Aks xolda qabul etilgan pedagogik usullarni joriy etishda o‘ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Tavsiyalar maxsus ta‘limga ehtiyoj sezgan bolalar bilan korreksion-ta‘limiy ishlarni oilada olib borish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, uni rivojlanishda orqada qolgan har qanday yoshdagi (ilk yoshdan maktab yoshtgacha) va har qanday nuqson turiga ega bo‘lgan bolalarga nisbatan qo‘llash mumkin. Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bola rivojining barcha asosiy sohalarini qamrab olishi kerak: nutqiy, kognitiv, ijtimoiy-iqtisodiy, motor va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, shuningdek davolash va tibbiy reabilitatsiyasi.

Individual rivojlantiruvchi dastur quyidagi vazifalarni hal etadi: tashxisiy vazifalar: alohida funksional tizimlarning shakllanib yetilish muddatlari turlicha ekanini hisobga olgan holda bolaning psixofizik holatini muttasil va har tomonlama o‘rganib borish;

- tibbiy va ijtimoiy havf-xatarlar omillarining bola rivojlanishiga ta‘sirini baholash;
- bolaning individual ta‘lim davridagi holatlari istiqbolini avvaldan belgilash;
- korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar: kamchilikni yengish va o‘rnini to‘ldirish, bolani ijtimoiy atrof muhitda moslashuviga erishish;
- ta‘limiy vazifalar: bolalarni ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish usullariga o‘rgatish, ularning bilish faolligini rivojlantirish, har bir yosh davri uchun xos bo‘lgan bolalar faoliyatining barcha turlarini shakllantirish;
- tarbiyaviy vazifalar: ijtimoiy muhitga moslashtirish, bolaning oilada mustaqilligini oshirish, maktabgacha yoshdagi bolaning faoliyati va ahloqida ma‘naviy-ahloqiy mezonlarni tarkib toptirish, shuningdek bolada ijobiy insoniy fazilatlarni tarbiyalash.
- bilish faoliyati bo‘limiga tevarak-atrof bilan tanishtirish, matematika hamda o‘yin, mehnat, rasm, applikasiya kabi faoliyat turlari bo‘yicha mashg‘ulotlar kiradi;
- nutqni rivojlantirish bo‘limiga nutq nuqsonini bartaraf etish, rivojlantirish, o‘stirish va erkin muloqotga o‘rgatish;
- motor rivojlantirish bo‘limiga ertalabki gimnastika va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, harakatli o‘yinlar kiradi;



- ijtimoiy-hissiy bo‘limga bayramlar, musiqa mashg‘ulotlari va boshqa tadbirlar kiradi;
- o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga ijtimoiy-maishiy xizmatga yo‘altirish va mehnat mashg‘ulotlari kiradi.
- musiqaviy tarbiya ishlari quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi: musiqani tinglash, kuylash, raqsga tushish, musiqa asboblarini chalish.

Demak, mutaxassis yordami bir tomondan bolani korreksion – pedagogik ta’lim olishiga, ikkinchi tomondan ota-onalarni o‘z farzandlari bilan hamkorligini samarali usullarni shakllantirishga karatilgan bulishi kerak.

Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan hamkorligini shakllantirish yo‘llari quyidagicha.

Mutaxassislarni oila bilan ishlash tizim mazmuni, maksadi vazifalari tarbiyalovchi ota-onalar bilan samarali ishlash formalari haqida to‘xtalamiz.

Oilalar bilan mutaxassislar (logoped, defektolog, tarbiyachi, psixolog, o‘qituvchi) individualyoki yalpi maylislarda uchrashadilar. Bola rivojlanishni individual dasturi tuziladi. Bu ikki yunalishda olib borildi. Bola ta’limning individual dasturi kuyidagilarni kuzda tutadi. Kattalarga kizikishni tarbiyalash ijtimoiy tajribaning egallash usullarini shakllantirish; rang, shakl buyicha oriyentirovka kilish malakasini rivojlantirish, uyin faoliyatiga qiziqishni tarbiyalash umum va mayda motorikani takomillashtirish hamda rivojlantiish, nutkni tushunish rivojlantirish, nutqni faol egalshai malakasini shakllantirish.

Ota-onalarni farzandlari bilan hamkorligini shakllantirish bo‘yicha individual dastur quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Tarbiyaning faol va ishonchli usulini shakllantirish, psixofizik rivojlanishida nuksoni bor bolalarni kichik yoshdagi bola bilan predmet-uyin faoliyatini tashkil etishga ota - onalarni o‘rgatish. Shundan kelib chiqqan holda pedagog kuzatish malakasini shakllantirish, bolalar tarbiyasida ota-onalar kompentli darajasini oshirish ota-onalarni farzandi bilan uzaro hamkorligini rivojlantirish ota-onalarni bola ta’limning individual dasturi bilan ishlashga o‘rgatish.

Ota – onalar bilan ishlarni olib borishda izchillik, tizimlilik, ularning imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim. Logoped va ota – onalarning o‘zaro tushunishi, hamkorlikdagi ishtiroki va faoligi rivojlantiruvchi va korreksion ishlarning umumiy natijasini ko‘p jihatdan belgilaydi.

Xulosa. Oilada, maxsus maktab va maktabgacha muassalardagi nogiron bolalarga maxsus ta’lim tarbiya berish, korreksion-reabilitson, rivojlantirish ishlarini takomillashtirish, mavjud bulgan tusik va kamchiliklarrini yo‘kotish, integratsion ta’limni tadbiiq etish, oborish kerak bo‘lgan ishimizning asosini belgilaydi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalalari pedagoglar, sotsiologlar, psixologlar, tibbiyotchilar, faylasuflar uchun tadqiqot obyektiga aylanganligining o‘ziyoq bu masalaning nihoyatda dolzarbligini ko‘rsatadi.



Nutq nuqsoniga ega farzandi bor bolani tarbiyalash, kamol toptirish, murakkab muammolardan biri bo‘lib ota-onalardan, oila a‘zolaridan yuksak diqqat-e‘tiborni, g‘amxo‘rlikni, ishonchni, bilim va xushmuomilalikni talab etadi. Bundan tashqari bolaning har xil yoshdagi jismoniy va ruxiy rivojlanish normada va noanomal rivojlanish to‘g‘risida fiziologik qonuniyatlar haqida mukammal bilimga ega bo‘lishlari lozim.

Logopediya faning eng muhim masalalaridan biri nutq nuqsoniga ega farzandi bor bolalarning oiladagi tarbiyaviy vazifalarini aniqlashdan iboratdir. Nutq nuqsoniga ega bolalarni tarbiyalashda oila uchun xos bo‘lgan asosiy qonuniyatlar – bolalarning shaxsiy xislatlarini va nutqini shakllantirish, tarbiya maqsadi, vazifasi va prinsiplari mushtarakligiga amal qilishdir.

Nutq nuqsoniga ega farzandlari bor ota-onalar tibbiy xodimlar bilan bir qator logoped-o‘qituvchilar bilan uzviy hamkorlikda bolani nutqini tarbiyalash va hayotga moslashtirish yo‘llarini izlashlari lozim.

Adabiyotlar:

1. Колтакова, Е. В. Проектирование содержания повышения квалификации учителей-логопедов на основе профессиографического подхода [Текст]: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 2009. - 236.
2. Яковлева, И. М. Формирование профессиональной компетентности учителя-олигофренопедагога [Текст]: монография / И.М.Яковлева. - М.:Спутник, 2009. - 220 б.
3. L.R. Mo‘minova. Bolalarni logopedik tekshirish va o‘qitish. —T.; O‘qituvchi, 1992.
4. V.S. Rahmonova. Maxsus pedagogika. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. — T., 2004.
5. R.Sh. Shomahmudova, L.R. Mo‘minova. Bog‘cha va kichik maktab yoshidagi bolalar nutqidagi nuqsonlarni tuzatish. -T., O‘qituvchi, 1993.
6. www.ziynet.uz
7. www.edu.uz
8. www.tdpu.uz
9. www.pedagog.uz
10. www.defektolog.uz

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo‘lajak logopedlarning nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan ishlashga o‘rgatish, ota-onalar uchun tavsiyalar, ota-onalar bilan ishlash tamoyillari, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bola rivojining barcha asosiy sohalari va boshqa jihatlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье дана подготовка будущих логопедов к работе с родителями детей с нарушением речи, рекомендации для родителей, принципы работы с родителями, все основные направления развития ребенка с нарушением речи и другие аспекты.

SUMMARY

In this article, training of future speech therapists to work with parents of speech-impaired children, recommendations for parents, principles of working with parents, all the main areas of development of a child with speech impairment and other aspects are given.